

“MAHBUB UL-QULUB” ASARIDA TARBIVAVIY QADRIYATLAR TALQINI

Zohida To‘ychiyeva

TDPU, Ijtimoiy –gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi
(ma’naviyat asoslari) mutaxassisligi magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada vatanga muhabbat, insoniylik g‘oyasi, umuminsoniy qadriyatlar majmui, odob-axloq, vatanparvarlik, fidoyilik kabi tarbiyaviy qadriyatlarining mazmun-mohiyati Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida ilgari surilgan g‘oyalar misolida tahlil etilgan.

Tayanch tushuncha va iboralar: tarbiya, tarbiyaviy qadriyatlar, ma’navimiy meros, Alisher Navoiy merosi, “Mahbub ul-qulub”, “Ko‘ngillarning sevgani”.

Buyuk ajdodlarimiz, jumladan, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Mahmud Zamaxshariy, Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Burhoniddin Marg‘inoniy Amir Temur, Xoja Ahror Vali, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar bizga o‘zlarining ma’naviy meroslari qoldirib ketganlar. Bu ota-bobolarimiz qoldirib ketgan buyuk merosning zamirida vatanga muhabbat, insoniylik g‘oyasi, umuminsoniy qadriyatlar majmui, odob-axloq, vatanparvarlik, fidoyilik, xalqlar o‘rtasida do‘stlik, tinchlik va umuman ezgulikka da‘vat etuvchi g‘oyalar yotadi.

Misol uchun birgina ana shunday ezgulikka da‘vat etuvchi g‘oyalar asosiga qurilgan nodir manbalardan biri – ulug‘ mutafakkir va shoir Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini olaylik.

Asar 1500-1501 yillarda yozilgan bo‘lib, Ma‘nosi “Ko‘ngillarning sevgani” bo‘lib, u muallifning boy tajribasi va mashaqqatli hayoti davomida to‘plagan xulosalar yig‘indisi hisoblanadi.

Navoiy bu asaridan ko‘zlagan maqsadini asar muqaddimasida:

“...Maqsadim shuki, har yo‘lda yurdim, olamda bo‘lmish har nav odam bilan ko‘rishdim, katta-kichikning fe‘l-atvorini tajribadan o‘tkazdim.

Shu jihatdan, hamsuhbatlarni va do‘st-yorlarni bu hollardan ogoh va xabardor qilmoq vojib ko‘rindi”, - deydi.

Navoiy bu asarida ham inson haqida qayg‘uradi. Uning dardini chekadi. Insoniylikka yarashqli fazilatlarini madh etadi. Unga zid bo‘lgan illatlarni qoralaydi. Insonparvarlik, xalqparvarlik bu asarning bosh g‘oyasidir.

Asarning birinchi qismi “Xaloyiq ahvoli kayfiyatida”, ya‘ni kishilarning ahvoli, fe‘l-atvori va gap-so‘zlarining ahamiyati haqida bo‘lib, 40 fasldan iborat. Bunda Navoiy barcha ijtimoiy guruh va tabaqalarga tavsif beradi. Jumladan, odil podshohlar to‘g‘risida, beklar, noyiblar, vazirlar, qozilar, tabiblar, shoirlar, kotiblar, munajjimlar va boshqalar haqida o‘z qarashlarini bayon etadi. Shuningdek, mudarrislar haqida gapirib, “Mudarris – mansab va amaldorlikka qiziqmasligi; o‘zi bilmaydigan ilmdan dars berishga urinmasligi; manmanlik uchun dars berishga havas ko‘rgizmasligi...” lozim desa, maktab ahli to‘g‘risida so‘z ketganda, ustoz bir to‘da bolaga ilm-adab o‘rgatadi. U yuzlab mashaqqat chekadi. Shu jihatdan olganda bolalarda uning haqqi ko‘p. Ustoz rozi bo‘lsa, tangri ham rozi bo‘ladi:

Haq yo‘lida kim sanga bir harf o‘qitmish ranj ila,

Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila, – deydi.

Asarning bu qismida yana shunday ajoyib bir fasl borki, unda oilada ayollarning roli borasida so‘z yuritiladi. “Yaxshi xotin – oilaning davlati va baxti. Uyning oroyishi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Xushmuomala bo‘lsa – jon ozig‘i, oqila bo‘lsa,

ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi. Ammo, xudo ko'rsatmasin, nomuvofiq xotin uchrasa, o'z uyingda halokatli illat paydo bo'ladi".

"Mahbub ul-qulub"ning 2-qismi asosan axloqiy masalalarga bag'ishlanib, yaxshi fazilat va yomon xislatlar tahlil etiladi. 10 bobdan iborat bu qismda Navoiy o'z o'quvchilariga – mana bu yaxshi fazilat senga o'rnak bo'lsin, mana bu yomon xislatlardan o'zingni forig' tut, - demoqchi bo'ladi. Bunda tavba, qanoat, sabr, tavoze va odob, ishq to'g'risida bahs yuritadi.

"Haqiqiy tavba – yomon fe'llar tufayli keladigan azob-uqubatlarning oldini oladi, gunohkor bandaning ko'ngil ko'zini gunoh zangidan tozalaydi. Qanoatli darveshning qattiq noni esa, tamagir shohning noz-ne'mat to'la dasturxonidan yaxshiroq, deydi. Sabr – achchiq, ammo foyda beruvchi, u qattiq, ammo ziyon-zahmatni daf etadi... sabr shodliklar kalitidir" deb ataydi.

Aqlu hikmat ishidur bo'yla maoshu oydin,

Qayda topqay muni har nafsparastu xudbin.

Navoiy odob va tavoze haqida gapirar ekan, "Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir. Odobli odam o'z tengdoshlari orasida ham tahsinga loyiq ... Odob – kichik yoshlilarni kattalar duosiga sazovor qiladi... Odob – kishilar tarafidan qilinishi mumkin bo'lgan hurmatsizlik eshigini bekitadi. Odobsizlik esa do'stlikka putur yetkazadi.

Tavoze va odob egalariga hamma ta'zim qiladi va hurmat bildiradi. Odobli va go'zal xulqli odamlar ko'payaversa, xalqning do'stligi, ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati borgan sari rivoj topa boradi.

Navoiy "Xos ishq" haqida so'z yuritar ekan, "...Pok ko'zni pok niyat bilan pok yuzga soladilar va pok ko'ngil u pok yuzning shavqi va zavqi bilan beqaror bo'ladi.." deb ta'riflaydi.

"Mahbub ul-qulub"ning 3-qismi "Turli foydali maslahatlar va maqollar" deb nomlanadi. Unda ham odam va odamiylik haqida, chin insoniy fazilatlar to'g'risida asrlar mobaynida xalq tajribasi hamda bilimining qaymog'i bo'lgan fikrlar, shuningdek, shoirning uzoq va murakkab hayot tajribasining natijalari, xulosalari keltirilgan. Shoir o'zi qayta-qayta takrorlaganidek, "oz so'z – soz so'z" hikmatiga to'la rioya qiladi. Bu pand-nasihatlar insonparvarlik xarakteriga ega bo'lib, har bir inson uchun ularga rioya qilish barkamol inson bo'lish demakdir. Aytish kerakki, Navoiy yuksak insoniy fazilatlarni madh etish bilan birgalikda ayni paytda odamlardagi salbiy xislatlarni ham qoralaydi, tanqid ostiga oladi.

Navoiy aytadiki, "sahvu xato bashariyat lozimdur". Demak, kishi mutlaqo xatosiz yashashi qiyin. Ammo hamma mardlik xatoni to'g'ri anglay olish va uni oldini ola bilishdadir.

Navoiy insonlarni ilm o'rganishga chorlab, "Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim". "Oz-oz o'rganib, dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur" kabi hikmatlarni keltiradi. Mehnat, aziyat chekib, ilm o'rganganlarni xiradmandlar deb olqishlaydi.

Kishiga necha kelsa mushkul hol,

Hikmatu aql anga erur halol – deya ilm ahliga g'oyat yuksak baho beradi.

Navoiy yoshlik kunlari haqida gapirib,

"Yigitlik umr gulshanining bahoridir va hayot oqshomining tongidir. Insonning go'zalligi ham undan; bashar avlodining qudrati undan".

Mardlik, mag'rurlik, salomatlik, navqironlik barchasi unda mujassam ekan, uni har bo'lmag'ur ishlarga zoye ketkazmaslik haqida shunday deydi:

Ahbob, yigitlikni g'animat tutingiz,

O'zni qarilik mehnatidan qo'rqtungiz,

Oyini adovatu hasaddin o'tungiz,

Har nav ila o'zni necha kun ovutingiz(3).

Xullas, Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida yuksak insonparvarlik g'oyalarini aks ettirib, kelajak avlodlarga qaratilgan eng pokiza tuyg'ularini, dono o'gitlarini asarga qat'iylik

bilan teran mazmun, serjilo badiiy bo‘yoqlarda bayon etadi. Bu hozirgi yoshlarimiz o‘rganishi lozim bo‘lgan bitmas-tuganmas xazina ham hisoblanadi. Shunday ekan, Navoiyning va barcha buyuk ajdodlarimizning buyuk merosini o‘rganishdan, o‘rgatishdan hech qachon charchamaylik. Shundagina aqli teran, yuksak ma’naviyatli yoshlarimiz mustaqil yurt tayanchi bo‘la oladi.

Shu boisdan ham bugungi kunda milliy va ma’naviy merosimizni ko‘z qorachig‘imizdek asrab-avaylash, qayta tiklash va ta’mirlash bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Ertaga bizning o‘rnimizga keladigan, biz boshlagan olijanob ishlarni munosib davom ettirishga qodir bo‘lgan yoshlarimiz ana shu bebaho milliy va ma’naviy boyliklarmizdan bahramand bo‘lsin va o‘zining kimligi, qanday buyuk zotlarning avlodi ekanini anglab yetsinlar.

Oldimizga qo‘ygan bunday ezgu maqsadlarga erishishda milliy qadriyatlarimiz va o‘zligimizga sadoqat bilan hayot kechirishda muqaddas dinimiz islom dinining o‘rni va ahamiyati beqiyos. Nega deganda insoniylik mehr-oqibat, halollik, mehr-oqibatni o‘ylab yashash sahovat va muruvvat singari xalqimizga mansub bo‘lgan fazilatlar aynan shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi.

Bugungi kunda islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib, uning xayrixoh va tarafdorlari ko‘payib borayotgani hech kimga sir emas. Buning asosiy sababi birinchi galda muqaddas dinimizning haqiqiy va pokligi, insonparvarligi va bag‘rikengligi odamzodni doimo yaxshilik va ezgulikka chorlashi hayot sinovlarida o‘zini oqlagan qadriyat va an‘analarni ajdodlardan avlodlarga yetkazishdagi buyuk o‘rni va ahamiyati bilan bog‘liq.

Zotan, har bir davr, ijtimoiy muhit, ma’naviy extiyoj va manfaatlar milliy axloqiy qadriyatlarning yangi mezon, meyor va tamoyillarini yaratadi. Bu jarayonni shaxs va davlat, inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar yangicha mazmun va shakl topib, yangi xususiyatlar, yangi tamoyillar asosida takomillashib borayotganini sezish va anglash qiyin emas, –deb ta’kidlaydi O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I.A. Karimov(2).

Xulosa sifatida aytmoqchimizki, o‘zbek xalqiga xos axloqiy fazilatlar mehr–oqibat, mehr–shavqat, qadr–qimmat, muruvvat, himmat, diyonat, oriyat, iffat, ibo, tavoze, mulozamat, nazokat, halimlik, xush fe‘llik, latofat, nazakat, dahldorlik, qanoat, insof, oilaparvarlik, karamlik, kabilarning so‘z sifatida atamasi, axloqiy qadriyat sifatida mazmun–mohiyatini teran anglash uchun hazrat Navoiyning birgina “Mahbub ul-qulub” asarini emas, balki uchun butun ijodini, bizga qoldirgan boy ma’naviy–ma’rifiy merosini o‘rganishimiz zarur. Shu bois ham O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021 yil 31 mart kuni Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining videoanjuman shaklida bo‘lib o‘tgan norasmiy sammitidagi nutqida buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiyning turkiy dunyo ma’naviy–marifiy hayotiga qo‘shgan beqiyos hissasini inobatga olib, fan, ta’lim, adabiyot, san’at, ijtimoiy sohalaridagi yutuqlar hamda turkiy dunyo birligini mustahkamlash yo‘lidagi say–harakatlarni rag‘batlantirish maqsadida Turkiy kengash doirasida Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni ta’sis qilishni taklif etgan edilar(1). Bu bejiz emas. Zotan Navoiyni anglash sharqona qadriyatlarni, tarbiyaviy an‘analarni, eng muhimi, o‘zlikni anglashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev Turkiy kengashning norasmiy sammitida ishtirok etdi//Xalq so‘zi,2021 yil, 1 aprel.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyag, 2008.
3. Alisher Navoiy.Mahbub ul-qulub. –T.: Yoshlar nashriyot uyi,2018 yil.